# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 25 928 tani tashkil etib, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 066 tani tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda.*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

841
25,7 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 621
44,2 %

Sanoat

269
13,9 %

Qurilish

1 953
25,8 %

Savdo

204
20,6 %

Tashish va saqlash

339
25,1 %

Yashash va ovqatlanish

213
44,7 %


Axborot va aloqa

78
16,0 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

918
14,8 %

Boshqa turlar

2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 6 436 soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 964 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023-yil yanvar-dekabr oylarida mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 5 495 tani, oilaviy korxonalar 554 tani tashkil etgan.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Nukus sh. | 1 339 | 20,3 % |
| Beruniy | 615 | 28,4 % |
| Qo‘ng‘irot | 519 | 32,0 % |
| To‘rtko‘l | 514 | 19,7 % |
| Ellikqal’a | 507 | 28,0 % |
| Amudaryo | 530 | 24,5 % |
| Chimboy | 315 | 26,9 % |
| Xo‘jayli | 322 | 23,9 % |
| Kegayli | 246 | 27,9 % |
| Shumanay | 246 | 40,1 % |
| Qorao‘zak | 229 | 29,1 % |
| Qonliko‘l | 195 | 27,3 % |
| Nukus | 192 | 19,9 % |
| Taxtako‘pir | 231 | 40,5 % |
| Mo‘ynoq | 170 | 24,0 % |
| Taxiatosh | 174 | 22,0 % |
| Bo‘zotov | 92 | 21,4 % |

# 3 Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

3 267
12,6 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

3 666
14,1%

Sanoat

1 931
7,5 %

Qurilish

7 569
29,2 %

Savdo

988
3,8 %

Tashish va saqlash

1 348
5,2 %

Yashash va ovqatlanish

476
1,8 %


Axborot va aloqa

487
1,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

6 196
23,9 %

Boshqa turlar

2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga (18 404 ta) nisbatan 7 524 taga ko‘payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 4 203 tadan 7 569 taga (o‘sish 3 366 ta), sanoat – 2 321 tadan 3 666 taga (o‘sish 1 345 ta) , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 2 078 tadan 3 267 taga (o‘sish 1 189 ta).

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 6 583 | Kegayli | 881 |
| To‘rtko‘l | 2 606 | Qorao‘zak | 787 |
| Beruniy | 2 165 | Taxiatosh | 792 |
| Amudaryo | 2 163 | Qonliko‘l | 713 |
| Ellikqal’a | 1 812 | Mo‘ynoq | 708 |
| Qo‘ng‘irot | 1 621 | Shumanay | 613 |
| Xo‘jayli | 1 349 | Taxtako‘pir | 570 |
| Chimboy | 1 171 | Bo‘zotov | 429 |
| Nukus | 965 | | |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

840
26,2 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 620
44,6 %

Sanoat

268
14,1 %

Qurilish

1 952
25,8 %

Savdo

203
20,7 %

Tashish va saqlash

338
25,2 %

Yashash va ovqatlanish

213
48,4 %


Axborot va aloqa

77
18,9 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

736
28,4 %

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish 165 tadan 338 taga (o‘sish 173 taga), tashish va saqlash – 162 tadan 203 taga (o‘sish 41 taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 1 259 | 22,5 % | Shumanay | 245 | 49,5 % |
| Beruniy | 596 | 32,0 % | Qorao‘zak | 224 | 34,3 % |
| Qo‘ng‘irot | 514 | 37,5 % | Qonliko‘l | 191 | 32,5 % |
| Ellikqal’a | 498 | 32,1 % | Taxtako‘pir | 227 | 50,3 % |
| To‘rtko‘l | 493 | 21,1% | Nukus | 183 | 22,3 % |
| Amudaryo | 527 | 28,2 % | Mo‘ynoq | 168 | 27,8 % |
| Chimboy | 307 | 31,9 % | Taxiatosh | 169 | 25,8 % |
| Xo‘jayli | 313 | 26,9 % | Bo‘zotov | 89 | 24,9 % |
| Kegayli | 244 | 33,2 % | | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

3 206
14,5 %

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi**

3 634
16,5 %

**Sanoat**

1 903
8,6 %

**Qurilish**

7 564
34,3 %

**Savdo**

981
4,5 %

**Tashish va saqlash**

1 341
6,1 %

**Yashash va ovqatlanish**

440
2,0 %


**Axborot va aloqa**

408
1,8 %

**Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish**

2 589
11,7 %

**Boshqa turlar**

Tumanlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,4 foiz), To‘rtko‘l (10,6 foiz), Beruniy (8,4 foiz), Amudaryo (8,5 foiz)va Ellikqal’a (7,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari soningin 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 5 602 | Kegayli | 736 |
| To‘rtko‘l | 2 331 | Qorao‘zak | 653 |
| Beruniy | 1 863 | Taxiatosh | 654 |
| Amudaryo | 1 867 | Mo‘ynoq | 604 |
| Ellikqal’a | 1 550 | Qonliko‘l | 588 |
| Qo‘ng‘irot | 1 372 | Shumanay | 495 |
| Xo‘jayli | 1 162 | Taxtako‘pir | 451 |
| Chimboy | 961 | Bo‘zotov | 357 |
| Nukus | 820 | | |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

**Hududlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Amudaryo | 374 |
| Nukus | 331 |
| To‘rtko‘l | 345 |
| Beruniy | 302 |
| Kegeyli | 198 |
| Qo‘ng‘irot | 197 |
| Ellikqal’a | 191 |
| Qonliko‘l | 181 |
| Chimboy | 167 |
| Xo‘jayli | 148 |
| Nukus sh. | 129 |
| Mo‘ynoq | 137 |
| Qorao‘zak | 133 |
| Bo‘zotov | 119 |
| Shumanay | 107 |
| Taxiatosh | 93 |
| Taxtako‘pir | 115 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 661 |
| Amudaryo | 375 |
| Ellikqal’a | 346 |
| To‘rtko‘l | 338 |
| Beruniy | 290 |
| Qo‘ng‘irot | 280 |
| Xo‘jayli | 207 |
| Qorao‘zak | 167 |
| Chimboy | 159 |
| Mo‘ynoq | 148 |
| Taxiatosh | 139 |
| Kegeyli | 120 |
| Taxtako‘pir | 118 |
| Nukus | 101 |
| Shumanay | 75 |
| Qonliko‘l | 82 |
| Bo‘zotov | 60 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 114,2 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish 101,2 foiz); 4,8 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 89,8 foiz); 2,5 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 123,1 foiz) va 0,8 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish  90,9 foiz) tashkil etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 849 |
| To‘rtko‘l | 145 |
| Ellikqal’a | 114 |
| Xo‘jayli | 111 |
| Qo‘ng‘irot | 91 |
| Beruniy | 91 |
| Nukus | 93 |
| Amudaryo | 81 |
| Taxiatosh | 59 |
| Kegeyli | 52 |
| Qorao‘zak | 51 |
| Chimboy | 50 |
| Qonliko‘l | 37 |
| Mo‘ynoq | 36 |
| Shumanay | 29 |
| Bo‘zotov | 19 |
| Taxtako‘pir | 23 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 72,4 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,7 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,7 foiz ulushni va 80,0 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

**316** Fuqarolik obyektlarini qurish

**536** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**1 079** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 2 112 |
| To‘rtko‘l | 879 |
| Beruniy | 717 |
| Amudaryo | 643 |
| Ellikqal’a | 549 |
| Qo‘ng‘irot | 406 |
| Xo‘jayli | 404 |
| Chimboy | 385 |
| Taxiatosh | 248 |
| Shumanay | 203 |
| Kegeyli | 204 |
| Qonliko‘l | 181 |
| Nukus | 162 |
| Qorao‘zak | 156 |
| Mo‘ynoq | 162 |
| Taxtako‘pir | 100 |
| Bo‘zotov | 58 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 564 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 98,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 108,0 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 10,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 113,3 foizga oshgan.

**769**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**1 882**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**4 918**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 388 |
| Amudaryo | 161 |
| To‘rtko‘l | 135 |
| Qo‘ng‘irot | 112 |
| Ellikqal’a | 105 |
| Beruniy | 102 |
| Xo‘jayli | 65 |
| Chimboy | 51 |
| Kegeyli | 45 |
| Qonliko‘l | 32 |
| Mo‘ynoq | 30 |
| Qorao‘zak | 30 |
| Taxiatosh | 26 |
| Shumanay | 23 |
| Taxtako‘pir | 18 |
| Nukus | 13 |
| Bo‘zotov | 12 |




2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 118,3 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,5 foiz ulushini tashkil etdi.

**101** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 247** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yarvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 198 |
| Qo‘ng‘irot | 42 |
| Chimboy | 33 |
| Beruniy | 32 |
| Ellikqal’a | 23 |
| Xo‘jayli | 23 |
| Amudaryo | 22 |
| To‘rtko‘l | 20 |
| Nukus | 18 |
| Kegeyli | 15 |
| Mo‘ynoq | 11 |
| Taxiatosh | 9 |
| Shumanay | 7 |
| Qorao‘zak | 7 |
| Qonliko‘l | 8 |
| Taxtako‘pir | 5 |
| Bo‘zotov | 3 |




2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,8 foizini tashkil etdi;

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 26,9 foizi ulushni tashkil etdi;

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 52,3 foizini tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh | 189 |
| Amudaryo | 40 |
| Beruniy | 36 |
| Qo‘ng‘irot | 35 |
| Xo‘jayli | 33 |
| Ellikqal’a | 35 |
| To‘rtko‘l | 32 |
| Chimboy | 18 |
| Kegeyli | 15 |
| Taxiatosh | 16 |
| Nukus | 12 |
| Taxtako‘pir | 7 |
| Shumanay | 5 |
| Qorao‘zak | 5 |
| Qonliko‘l | 4 |
| Mo‘ynoq | 4 |
| Bo‘zotov | 1 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning – 487 ta yoki 1,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

94,5 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 105,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 90,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish
**9**

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash
**18**

Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat
**460**

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Nukus sh. | 316 |
| To‘rtko‘l | 159 |
| Qo‘ng‘irot | 72 |
| Ellikqal’a | 63 |
| Amudaryo | 62 |
| Beruniy | 55 |
| Chimboy | 43 |
| Xo‘jayli | 45 |
| Mo‘ynoq | 32 |
| Qorao‘zak | 33 |
| Kegeyli | 27 |
| Nukus | 22 |
| Taxiatosh | 19 |
| Taxtako‘pir | 17 |
| Bo‘zotov | 9 |
| Shumanay | 8 |
| Qonliko‘l | 6 |




2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 81,5 foiz ulushni tashkil etdi;

Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining 17,2 foiz ulushni tashkil etdi;

Pochta va kuryerlik yo‘nalishi 1,1 foiz ulushni tashkil etdi;

Havo transporti yo‘nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar 0,1 foiz ulushni tashkil etdi;

Suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar 0,1 foiz ulushni tashkil etdi.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 11 | 170 | 805 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

| | Tadbirkorlik subyektlari soni | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| mas’uliyati cheklangan jamiyat | 17 171 | 77,5 % |
| Xususiy korxona | 2 375 | 10,7 % |
| Oilaviy korxona | 2 173 | 9,8 % |
| Aksiyadorlik jamiyat | 20 | 0,1 % |
| Boshqalar | 412 | 1,9 % |

**Tashkiliy-huquqiy shakl** deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

764

28,3 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 320

49,9 %



Sanoat

258

14,7 %



Qurilish

1 754

30,9 %



Savdo

188

20,8 %



Tashish va saqlash

269

35,1 %



Yashash va ovqatlanish

200

54,5 %




Axborot va aloqa

62

21,3 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

680

33,1 %



Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 1 138 | Shumanay | 232 |
| Beruniy | 546 | Qorao‘zak | 211 |
| Qo‘ng‘irot | 460 | Nukus | 169 |
| Amudaryo | 490 | Mo‘ynoq | 164 |
| Ellikqal’a | 386 | Qonliko‘l | 153 |
| To‘rtko‘l | 330 | Taxtako‘pir | 170 |
| Chimboy | 299 | Taxiatosh | 152 |
| Xo‘jayli | 279 | Bo‘zotov | 80 |
| Kegeyli | 236 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

**2 703**
**15,7%**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**2 643**
**15,4%**

Sanoat

**1 760**
**10,2 %**

Qurilish

**5 683**
**33,1 %**

Savdo

**905**
**5,3 %**

Tashish va saqlash

**767**
**4,5 %**

Yashash va ovqatlanish

**367**
**2,1 %**


Axborot va aloqa

**291**
**1,7 %**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**2 052**
**12,0 %**

Boshqa turlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 22,1 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 17,1 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 4 733 | Kegeyli | 644 |
| To‘rtko‘l | 1 610 | Qorao‘zak | 570 |
| Beruniy | 1 439 | Mo‘ynoq | 523 |
| Amudaryo | 1 425 | Taxiatosh | 440 |
| Qo‘ng‘irot | 1 046 | Shumanay | 339 |
| Ellikqal’a | 965 | Qonliko‘l | 346 |
| Xo‘jayli | 935 | Bo‘zotov | 320 |
| Chimboy | 831 | Taxtako‘pir | 298 |
| Nukus | 707 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

165 — 6,8 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

332 — 14,2 %



Sanoat

118 — 5,2 %



Qurilish

1 019 — 43,0 %



Savdo

58 — 2,3 %



Tashish va saqlash

221 — 9,3 %



Yashash va ovqatlanish

55 — 2,3 %




Axborot va aloqa

69 — 2,9 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

338 — 14,0 %



Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 521 | Chimboy | 89 |
| Ellikqal’a | 360 | Qonliko‘l | 86 |
| Beruniy | 213 | Taxtako‘pir | 77 |
| To‘rtko‘l | 217 | Kegeyli | 51 |
| Qo‘ng‘irot | 193 | Qorao‘zak | 44 |
| Shumanay | 130 | Mo‘ynoq | 43 |
| Taxiatosh | 108 | Nukus | 32 |
| Amudaryo | 109 | Bo‘zotov | 10 |
| Xo‘jayli | 92 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi




**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2020-yilning mos davriga nisbatan 1 160 taga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| To‘rtko‘l | 479 | Taxtako‘pir | 69 |
| Nukus sh. | 318 | Nukus | 61 |
| Amudaryo | 304 | Mo‘ynoq | 29 |
| Ellikqal’a | 205 | Qorao‘zak | 25 |
| Beruniy | 164 | Kegeyli | 26 |
| Qo‘ng‘irot | 108 | Chimboy | 22 |
| Qonliko‘l | 121 | Shumanay | 22 |
| Xo‘jayli | 117 | Bo‘zotov | 13 |
| Taxiatosh | 90 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi

29 — 17,1 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

84 — 49,4 %

Sanoat

9 — 5,3 %

Qurilish

25 — 14,7 %

Savdo

2 — 1,2 %

Tashish va saqlash

4 — 2,3 %

Yashash va ovqatlanish

-


Axborot va aloqa

2 — 1,2 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

15 — 8,8 %

Boshqa turlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 155 dan 170 taga yoki 109,7  foizga oshgan.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Nukus sh. | 37 | Beruniy | 6 |
| Mo‘ynoq | 32 | Bo‘zotov | 7 |
| Qo‘ng‘irot | 14 | Xo‘jayli | 8 |
| Nukus | 8 | Amudaryo | 6 |
| Qonliko‘l | 8 | Taxtako‘pir | 2 |
| Qorao‘zak | 8 | Chimboy | 3 |
| Kegeyli | 8 | Shumanay | 2 |
| Taxiatosh | 7 | Ellikqal’a | 4 |
| To‘rtkol | 10 | | |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

| chet el korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 30 | Xitoy Xalq Respublikasi | 23 |
| 14 | Rossiya Federatsiyasi | 20 |
| 8 | Qozog‘iston Respublikasi | 7 |
| 10 | Turkiya Respublikasi | 7 |
| 8 | Janubiy Koreya | 2 |
| 19 | Boshqa davlatlar | 22 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 81 tasi qo‘shma korxonalar, 89 tasi chet el korxonalari hisobiga to‘g‘ri keldi.

**Xitoy Xalq Respublikasi** — **Rossiya Federatsiyasi**

**Qozog‘iston Respublikasi** — **Turkiya Respublikasi**

**Janubiy Koreya** — **Boshqa davlatlar**

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan chet el va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

| chet el korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 20 | Nukus sh. | 17 |
| 16 | Mo‘ynoq | 16 |
| 6 | Qo‘ng‘irot | 8 |
| 4 | Qonliko‘l | 4 |
| 6 | Nukus | 2 |
| 3 | Qorao‘zak | 5 |
| 3 | Kegeyli | 5 |
| 6 | Taxiatosh | 1 |
| 5 | To‘rtko‘l | 5 |
| 4 | Beruniy | 2 |
| 1 | Bo‘zotov | 6 |
| 4 | Xo‘jayli | 4 |
| 4 | Amudaryo | 2 |
| 1 | Taxtako‘pir | 1 |
| 1 | Chimboy | 2 |
| 2 | Shumanay | - |
| 3 | Ellikqal’a | 1 |

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma turidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.qrstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.: (61) 222-78-37